УДК: 91:796.5:910

Siddiqov Sadriddin Shuhratjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar kafedrasi kata o’qituvchisi, g.f.f.d.

Namangan, O‘zbekiston

NAMANGAN VILOYATIDA MAVJUDEKOTURISTIK IMKONIYATLAR RESURSLAR VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyatining turistik salohiyati, tabiiy-geografik imkoniyatlari hamda hududda ekoturizm, balneologik (tibbiyot), rekreatsiya, ziyorat va agroturizmni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Viloyat tumanlari va shahar markazining turistik resurslari, xususan, Chodak, Nanay, Chortoq, Axsikent kabi maskanlarning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, hududda turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va sohaga innovatsion loyihalarni jalb etish bo‘yicha rivojlantirish istiqbollari va amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Namangan viloyati, turizm salohiyati, ekoturizm, balneologiya, rekreatsiya, Axsikent, Chortoq, Chodak, turizm infratuzilmasi, rivojlantirish istiqbollari.

Аннотация (на русском языке) В данной статье анализируются туристический потенциал, природно-географические возможности Наманганской области, а также вопросы развития экотуризма, бальнеологического (медицинского), рекреационного, паломнического и агротуризма в регионе. Освещены специфические особенности туристических ресурсов районов и областного центра, в частности таких объектов, как Чадак, Нанай, Чартак и Ахсикент. Также представлены перспективы развития и практические предложения по совершенствованию туристической инфраструктуры, повышению качества обслуживания и привлечению инновационных проектов в отрасль.

Ключевые слова: Наманганская область, туристический потенциал, экотуризм, бальнеология, рекреация, Ахсикент, Чартак, Чадак, туристическая инфраструктура, перспективы развития.

Abstract (in English) This article analyzes the tourism potential, natural and geographical capabilities of Namangan region, as well as the development of ecotourism, balneological (medical), recreational, pilgrimage, and agritourism in the area. The specific characteristics of tourism resources across districts and the regional center, particularly key sites such as Chodak, Nanay, Chortoq, and Axsikent, are highlighted. Furthermore, development prospects and practical recommendations are provided for improving tourism infrastructure, enhancing service quality, and introducing innovative projects into the sector.

Keywords: Namangan region, tourism potential, ecotourism, balneology, recreation, Axsikent, Chortoq, Chodak, tourism infrastructure, development prospects.

Kirish. Namangan viloyatida mavjud aholining asosiy qismi Namangan shahri va tuman markazlarida istiqomat qiladi. Aholining bunday joylashuvi . Ichki turistik ehtiyojning ortishini keltirib chiqaradi.Rekreatsiya va xordiq chiqarish ehtiyoji: Zich joylashgan shahar va tuman markazlarida shovqin, urbanizatsiya, texnogen zo‘riqish va kunlik ish stressi yuqori bo‘ladi. Bu holat aholida ruhiy hamda jismoniy hordiq chiqarish — tabiat qo‘yniga chiqish, dam olish maskanlari va sanatoriylarga borish ehtiyojini (rekreatsion turizm) kuchaytiradi. Namangan viloyatining tabiiy geografik joylashuvidagi o‘ziga xos bo‘lgan quyidagi qonuniyat nafaqat Farg‘ona vodiysida balki mamlakatimizda xilma-xil turistik ob’ektlarni hosil bo‘lish imkoniyatlari shakllantirilgan. Viloyatni shimoliy-g‘arbiy qismidan shimoliy va shimoliy sharqqa tomon 2000 km ga cho‘zilgan Chatqol va Qurama tog‘lar tizimidagi 20 tadan ortiq tog‘lar janubiy yon bag‘irlarida joylashgan bo‘lib, viloyatni salkam 50 foizi hududini egallaydi. Shimoliy yarim sharda paralellarga mos yo‘nalgan tog‘larni janubiy yon bag‘irlari shimoliy yon bag‘irlariga nisbatan quyosh radiatsiyasi (issiqlikni), atmosfera atmosfera yog‘inlarni bir necha marta ko‘p oladi. Bu tabiiy qonuniyat viloyatda turistik ob'ektlarni ko‘plab hosil bo‘lishiga va geografik tarqalishida asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.[1]

Qisqa muddatli (dam olish kunlari) turizm: Zich aholi yashaydigan joylarda haftalik ish kunlaridan so‘ng shahar tashqarisiga (masalan, tog‘li va suv bo‘yi hududlariga) 1-2 kunlik sayohatlarga bo‘lgan talab juda yuqori bo‘ladi. Ijtimoiy va oilaviy turizm: Insonlar to‘plangan joyda oilaviy ko‘ngilochar parklar, madaniy tadbirlar, ziyoratgohlar va umumiy ovqatlanish maskanlariga ehtiyoj muntazam ortib boradi.

Xizmat ko‘rsatish va infratuzilma zichligi: Aholi zich joylashgan hududlar iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgani sababli, bu yerda mehmonxonalar, restoranlar, transport va servis tarmog‘i tez rivojlanadi. Bu esa tashqaridan kelayotgan sayyohlarning qulaylik va xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni osonlashtiradi. Etnik va madaniy turizmga talab: Aholi zichligi yuqori bo‘lgan tarixiy va etnik markazlarda hunarmandchilik, milliy oshxona, urf-odatlar va madaniy xilma-xillik yaxshi saqlanadi. Bu xorijiy va mahalliy turistlarning madaniy-ma’rifiy ehtiyojlarini jozibador qiladi.



1-rasm. Namangan viloyati turistik xaritasi

Asosiy qism. Namangan viloyati turistik resurslarga boy viloyat hisoblanib viloyatning shimoliy hududlari tog’ oldi va tog’li hududlardan tashkil topkan. Namangan viloyatining markaziy va janubiy qismi tekislik hududlardan iboratligi turistik resurslarni xilma xil bo’lishini taminlaydi.Viloyatda asosan quyidagi turitik resurs turlari mavjud:

Tibbiyot va sog‘lomlashtirish resurslari jumladan, Chortoq, Kosonsoy, Shahand va Mingbuloq sanatoriylari tayanch-harakat va oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda mintaqaviy brendga aylangan;

ekoturizm va tog‘-rekreatsiyasion resurslar, Chatqol va Qurama tog‘ tizmalari bag‘ridagi Chodak (Pop), Nanay va Podshootasoy (Yangiqo‘rg‘on), G‘ova (Chust) qishloqlari xushhavo tabiati va soy bo‘ylari bilan yozgi dam olish markazlari hisoblanadi;

ziyorat va madaniylik-tarixiy turizm, antik davrga oid Axsikent arxelogik yodgorligi, Chust tumani markazidagi Mavlono Lutfillo majmuasi, Namangandagi Mulla Qirg‘iz madrasasi hamda Chortoq tumani shimolida joylashgan Sulton Uvasy Qaraniy ziyoratgohlari turoperatorlar uchun muhim obyektlardirdan biri hisoblanadi;

gastronomiya va hunarmandchilikresurslari, Chust pichoqchiligi va do‘ppido‘zligi, Namangan palov madaniyati va gulchilik an’analari xalqaro darajada tan olingan.Shuningdek viloyatning shimoliy qismida tayyorlanadigan ayrim taomlarga qo’shni viloyatdan ham sayyohlar tashrifi ortib bormoqda. Jumladan Nanay qishlog’I hududida tayyorlanadigan Beshbarmoq taomi juda mashxur hisoblanadi. Har yili o‘tkaziladigan an’anaviy "Xalqaro Gullar Bayrami" festivali yuz minglab xorijiy va mahalliy turistlarni jalb qiladi.Bugungi kunda viloyat rahbariyati tomonidan mazkur vestivalni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning oqibatida viloyatga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimi yilda-yilga ortib bormoqda.

Yuqoridagi turistik resurslar orqali viloyatda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bir muncha yaxshi hisoblanadi.

1-jadval

Yo‘nalish	**Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar**
Axsikent ochiq osmon ostidagi muzeyi	Tarixiy obidani YUNESKO ro‘yxatiga kiritish va 3D/VR turlar orqali rekonstruksiya qilingan antik shaharni namoyish etish.
Tog‘li hududlarda infratuzilma	Chodak va Nanayda mavsumiylikni kamaytirish uchun qishki sport hamda dor yo‘li (kanat) infratuzilmasini qurish.
Agro va Etnoturizm	Pop va Chust tumanlarida mevachilik va uzumchilik bog‘lari negizida Guest house hamda hosil terish turlarini yo‘lga qo‘yish.
Klaster va logistika	Namangan xalqaro aeroporti imkoniyatlaridan foydalanib, qo‘shni Farg‘ona va Andijon viloyatlari bilan yagona "Vodiy bo‘ylab" turistik halqasini shakllantirish.

Namangan viloyatida mavjud turistik resurslarni ayrimlari hali ko’pchilik uchun ,,kashf” qilinmagan (1-jadvalga qarang). Jumladan viloyatda bahor fasli lolaqizg’aldoqlar ochiladigan hududlarning juda kata qismi sayyohlarga nomalumligicha qolmoqda. Bu o’rinda ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalarning yaratilishi muhim hisoblanadi. Birgina Ertosh qishlog’i yaqinida joylashgan

Arashan ko’llar tizimi yaqin vaqtgacha ko’plab sayyohlar uchun nomalum edi. Mazkur hudud faqat mahalliy aholi va cho’ponlar uchun ma’lum hisoblanar edi. Ayrim sayyohlar tomonidan olingan foto tasvirlar bu hududga tashrif buyuruvchilar sonini keskin ortishiga olib keldi. Natijada, mazkur hududga hukumat darajasida e’tibor qaratilib turistik infratuzilma yaxshilanmoqda.

Namangan viloyati Pop tumanida bunday hududlar nihoyatda ko’p bo’lib ularni sayyohlarga namoyish qilish orqali turistik oqimlarni vujudga keltirish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. Jumladan, Jiblon va Ertosh qishlog’I hududida sayyohlar uchun nomalum hududlar anchagina topiladi. Viloyatdagi ko’plab turistik imkoniyatlarni sayyohlarga namoyish etishda mobil ilovalarning o’rni muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamolov B.H. Namangan viloyatida servis xizmatlarini rivojlanishida ekoturizmning o‘ziga xos xususiyatlari. Xizmat ko‘rsatish sohasi innovatsion rivojlanishning muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Samarqand, 2017. – B.163
2. Вернин Р.С., Рахимова Т. Естественная растительность и пастбища адыров Наманганской области.-Тошкент: “Фан”,1982.- 88 б.
3. Kamolov B.H. Viloyat hududidagi ekoturistik marshrutlar // Farg‘ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Namangan, 2016. – B. 97-101.
4. Дроздов А.В. Экотуризм: определения, принципы, признаки, формы.- Акт. пробл. туризма.- Москва, 1999.-40-41с.
5. Дроздов А.В. Современный экотуризма: концепции и практика.- Москва. КОНРУС, 2009. - 245-260 с.
6. Ердавлетов С.Р. Ещё раз к вопросу науки о туризме// Международная научно-практическая конференция.Вестник,1/2(42) -Казахстан, 2016. - 22 с.